

**XOJANING “GULZOR” ASARIDAGI KO‘CHMA
OBRAZ: ISKANDAR ZULQARNAYN**

E'zoza Usmonbekova
FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda „Gulzor“ asaridagi Iskandar obrazi Alisher Navoiy, Sa'diy Sheroziy, Yusuf Xos Hojib asarlari qahramonlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi va syujetlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Iskandar Zulqarnayn, Xoja, Gulzor, Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy.

Iskandar obrazi Sharq adabiyotida tarixiy voqelikdan ko'ra ko'proq ramziy-falsafiy ma'noga ega bo'lgan murakkab timsollardan biridir. Fors-turkiy adabiy an'anada u Zulqarnayn obraziga yaqinlashtirilgan, jahongir sarkarda emas, balki Nizomiy Ganjaviy dostonida Iskandar - donishmand, Xusrav Dehlaviy dostonida - ixtirochi olim, Abdurahmon Jomiy dostonida – tavhid yo'lidagi inson va Alisher Navoiy dostonida esa adolatli hukmdor sifatida gavdalanadi. Zulqarnayn ismining bir necha ma'nolari bor. Masalan, Zulqarnayn – ikki shoxli, bu haqda ertak va afsona, asotirlar to'qilgan. Zulqarnayn – ikki asrni ko'rgan, ya'ni bunday katta hududlarni egallagan shoh, albatta, uzoq umr ko'rgan bo'lishi kerak qabilida fikrlar mavjud. Zulqarnayn – kun botish hamda kun chiqish hukmdori va boshqalar. Nizomiy Ganjaviy Iskandarning yoshini 72 yoshda bo'lganligini, Xusrav Dehlaviy 102 yosh, Abdurahmon Jomiy 56 yosh va Alisher Navoiy esa 32 yoshda vafot topganini o'z asarlarida bayon qiladi.

Ibodulla Sayid Poshshoxo'ja binni Abdulvahobxo'janing „Gulzor“ asari laqabi Odil bo'lgan Kiston Qora sultonga bag'ishlanadi va 1538-yil yozib bitiriladi. „Gulzor“dagi ilk hikoyatda shoh Iskandar va darvesh suhbatini o'rin olgan. Ya'ni darvesh Iskandarga bu dunyodan shoh ham, gado ham bir kun o'tishi, boylikning vafo qilmasligi, banda banda uchun foniy narsalardan o'zgasini taklif qila olmasligini aytadi. Bu obraz va masalani boshqa asarlar bilan parallel taqqoslash mumkin. Jumladan, Alisher Navoiyning „Hayrat ul-abror“ dostonida Iskandar obrazi mavjud, biroq Xojaning Iskandar va darvesh obrazlari tashigan badiiy mushohada vazifasini faqatgina Iskandar Zulqarnaynga yuklangan:

„Tort, Navoiy, bu jahondin ilik,
Qaysi jahon, javhari jondin ilik“.

Binobarin, Xojaning „Gulzor“ asarida keltirilgan hikoyatda darvesh Iskandar Zulqarnayndan boylik o'rniga so'ragan uch narsa mavjud edi: so'nggida o'lim bo'lmagan tiriklik, qarilik bo'lmagan yigitlik, faqirliksiz g'aniylik va g'amginlik

bo‘lmagan shodlik. Ushbu nasihat Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig‘” asarida Oyto‘ldi (boylik) timsoli sifatida podshohga aytiladi: „Davlat kelib, yana ketmaganda, yorug‘ kunlar qorong‘ulashmagan bo‘lardi. Tiriklik degan narsa yeldek o‘tib ketadi, u qochadi, uni quvib yetib bo‘lmaydi, hech kim tuta olmaydi; bu o‘tkinchi qutga ishonib mast bo‘lma, u keladi va yana tez ketadi”. O‘zg‘urmish dunyoning ayblarini ayta turib, „Qani o‘sha Mag‘ribdan Mashriqqacha yurib, barcha ellarni o‘z tasarrufiga olgan bu dunyoning afzal jahongiri Iskandar Zulqarnayn?” deya xitob qiladi.

Sa‘diy Sheroziyning „Guliston” asarida esa Iskandari Rumiylar obrazi mavjud va ushbu hikoyat mazmuni yuqoridagi hikoyat yechimlaridan ayricha bo‘lib, uning katta hududlarni bosib olishining sababi fuqarolarni norozi qilmay, avvalgi shohlarni hurmat qilishi bilan izohlanadi. Asosan, Sa‘diy Sheroziyning „Guliston” asarida inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, odob-axloq, bilimga intilish, samimiyat markaziy mavzudir. Sa‘diy Sheroziy o‘zining hikmatli va badiiy uslubida hayotiy voqealarni misol qilib keltiriladi, u orqali o‘quvchiga axloqiy saboqlar beradi. „Guliston” ning afzalligi shundaki, u oddiy, tushunarli til va badiiy obrazlar orqali murakkab axloqiy masalalarni yetkazadi. Xojaning „Gulzor” asari bilan yaqinlik jihatlari shuki, har ikkisi hayotiy voqealar va oddiy xalqning odatlarini asos qilib oladi. Lekin Sa‘diy Sheroziyning asari yanada umumjahoniy hikmatlar bilan boyitilgan.

Xulosa o‘rnida ushbu to‘rt asar umuminsoniy qarashlar, axloqiy qadriyatlar va ma‘naviy tarbiya masalalari o‘ziga xos tarzda yoritiladi. Xoja hamda Sa‘diy Sheroziy asarlari hayotiy voqealar orqali maydonga kelgan bo‘lsa, Alisher Navoiy va Yusuf Xos Hojib asarlarida ideal shaxs, davlat boshqaruvi masalalarini ko‘proq nazariy va afsonaviy yo‘l bilan talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoja. Gulzor, - Toshkent, 1968.
2. A. Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 10 jildl. – Toshkent, 2011.
3. Sa‘diy Sheroziy. Guliston.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent, 1971.
5. Sh.Sirojiddinov. Navoiyshunoslik. – Toshkent, 2019.